

**ERNEST SETON-TOMPSON NASRIDA INSON VA TABIATNING  
EKZISTENSIAL ZIDDIYATI****Jo‘rayev Qobil Bekmurod o‘g‘li***Toshkent amaliy fanlar universiteti magistranti**Telefon raqam: +99944449886**Elektron manzil: [jonqobil421@gmail.com](mailto:jonqobil421@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Mazkur ilmiy-ommabop maqolada jahon animalistik nasrining yirik namoyandasi Ernest Seton-Tompson asarlarida inson va yovvoyi tabiat o‘rtasidagi murakkab, fojiali to‘qnashuvlar adabiyotshunoslik, psixoanaliz va ekokrititsizm nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Adibning "Lobo" hamda "Yovvoyi yo‘rg‘a" hikoyalari misolida tabiat farzandlarining bo‘ysunmas irodasi, g‘ururi va sadoqati insoniyatning shafqatsiz pragmatizmi va eqoizmiga qarshi o‘tkir fosh etuvchi indikator sifatida talqin etilgan. Maqolada an‘anaviy inson markazda turuvchi (antropotsentrik) dunyoqarashdan tabiat markazda turuvchi (ekotsentrik) dunyoqarashga o‘tishdagi ruhiy-estetik jarayonlar keng mushohada qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** animalistika, ekokrititsizm, antropotsentrizm, ekzistensial isyon, badiiy psixologizm, mifik dekonstruksiya, ma‘naviy degradatsiya, g‘urur, yovvoyi tabiat arxetipi.

**KIRISH: ASRIY SUKUNAT VA SIVILIZATSIYA TAJOVUZI**

Yovvoyi tabiatning kimsasiz qatlamlarida hukm suruvchi asriy sukunatni parchalagan miltiq ovozi shunchaki jismoniy hodisa yoxud maishiy ov manzarasi emas. Bu ibtidoiy musaffolikka, tutilmagan erkinlikka sivilizatsiya niqobi ostidagi kibrli insoniyatning shafqatsiz tajovuzidir. Qadimiy muvozanat buzilishi, ming yillar davomida uzviy simbiozda yashab kelgan odam va borliq o‘rtasida qonli jarlikning paydo bo‘lishi zamonaviy jahon adabiyotidagi eng og‘riqli mavzulardan sanaladi. Insonning tabiat ustidan hukmronlik qilish da‘vosi ma‘naviy halokatning boshlanish nuqtasi ekanligini anglash uchun badiiy tafakkur ancha uzoq va ziddiyatli yo‘lni bosib o‘tdi. Jahon adabiyotida bu ekzistensial fojiani teran psixologik shtrixlar, haqqoniy reallik va og‘ir pafosdan xoli tarzda o‘zlashtirgan ijodkor Ernest Seton-Tompsondir. U yovvoyi tabiatning tilsiz farzandlariga til bergan, ularning teran fojiasini, bukilmas irodasini butun insoniyat vijdoni qarshisiga savol qilib qo‘ya olgan buyuk so‘z san‘atkori hisoblanadi.

Adabiyot tarixiga nazar tashlasak, hayvonlar obrazi asrlar davomida asosan yordamchi, ramziy yoki vositachi vazifalarni bajarib kelganini ko‘ramiz. Antik davr masallaridan tortib, o‘rta asr dostonlarigacha hayvonlar yo insoniy illatlarni fosh etuvchi

allegorik niqob, yoki inson manfaatlari yo‘lida xizmat qiluvchi tobe vosita sifatida gavalangan. Tompson bu qadimiy antropotsentrik qolipni butunlay sindirib tashladi. U adabiyotga sun‘iy insoniyashtirilgan, odamlardek fikrlaydigan fantastik jonivorlarni emas, balki aniq biologik qonuniyatlarga bo‘ysunadigan, biroq ayni paytda o‘ziga xos murakkab xarakter, mustahkam iroda va g‘ururga ega bo‘lgan chinakam yovvoyi tabiat vakillarini olib kirdi. Bu estetik inqilob adabiyotshunoslikda qahramon tushunchasining ko‘lamini kengaytirdi. Yozuvchi asarlarida insoniyat qadimda yo‘qotib qo‘ygan mutlaq sof muhabbat, halollik va sadoqat qoidalari yovvoyi o‘rmon qonunlarida saqlanib qolgani qabariq holda namoyon bo‘ladi. Odamzot esa o‘zining pragmatik aqli, sovuq qurollari bilan bu muqaddas hududga eng katta tahdid, vahshiy qotil sifatida kirib boradi.

Tabiat va inson ziddiyatini fosh etuvchi fundamental asarlardan biri "Lobo" hikoyasidir. Bu asarni quruq animalistik syujet doirasida o‘lchash uning tub falsafiy mohiyatini inkor etish bilan teng. Lobo Nyu-Meksiko shtatidagi bepoyon Kurrumpo vodiysining yengilmas hukmdori, oddiy bo‘ri emas, balki mukammal yashash instinkti va o‘tkir intellektning simbiozi hisoblanadi. U inson o‘ylab topgan eng makkor qopqonlarni, zahar ufurib turgan xo‘raklarni osonlikcha chetlab o‘tish orqali aslida odamzotning aqliy va texnologik ustunligini masxara qiladi. Tajribali ovchilar va chorvadorlarning uning oldida mutlaq o‘jiz qolishi asarning eng kuchli ijtimoiy-psixologik nuqtasidir. Insonning o‘ziga bo‘lgan bino qo‘yishi, "tabiat gulto‘ji" degan iddaosini bitta yovvoyi hayvonning aqli chilparchin qiladi.

O‘jizlik, ruhiy mag‘lubiyat insonda "zo‘ravonlik kompensatsiyasi"ni uyg‘otadi. Odamlar mardona, yakkama-yakka kurashda yenga olmagan bu tabiat mo‘jizasiga qarshi eng razil, ehtirosdan va insoniylikdan xoli yo‘lni tanlaydilar. Ular Loboning zaif nuqtasini topishadi. Bu zaif nuqta uning ochko‘zligi, ishonuvchanligi yoki o‘jizligi emas, balki eng yuksak tuyg‘usi — jufti Blankaga bo‘lgan cheksiz, pokiza muhabbati edi. Odamlar Blankani vahshiylarcha o‘ldirish orqali faqatgina hayvonni emas, balki qandaydir fundamental ma’naviy qonuniyatni buzib o‘tadilar.

Qorda yotgan juftining qonini hidlagan yengilmas qirol mardligini, ming yillik ehtiyotkorligini unutadi. Blankaning jasadida tortib ketilgan izlar ustida qilingan isyonkar uvillash shunchaki yirtqichning nolasi emas, balki qadriyatlarini toptalgan sof tabiatning insoniyat sivilizatsiyasi ustidan o‘qigan lanatidir. Lobo o‘zining muqarrar halokatiga ketayotganini bilsa-da, muhabbat intinkti yashash instinktidan ustun keladi. Po‘lat qopqonlarga tushgan, zanjirband qilingan qirol odamlar bergan ovqatni yeyishdan mutlaqo bosh tortadi. U qafas ortidagi ufqlarga so‘nggi bor tikilib, asirlikdagi xo‘rlilikni rad etgan holda, o‘z xohishi bilan ruhini o‘limga topshiradi. Uning yuragi erkinlikning tortib olinishi va oliy muhabbatning parchalanishi tufayli yoriladi. Bu fojia inson vijdoni qarshisiga o‘ta og‘ir

savolni ko‘ndalang qo‘yadi: asari tugaganidan keyin kitobxon hayvonning jasadiga qarab emas, quturgan nafsini yo‘lida go‘zallikni mahv etgan odamzotning tubanligiga qarab larzaga tushadi.

Seton-Tompson asarlarida yovvoyi tabiat – darvinistik qonunlar hukm suradigan, faqatgina kuchlilar yashab qoladigan sovuq va beshafqat makon emas, insonning kibri domiy ravishda tahqirlaydigan sof, himoyasiz va go‘zal ibodatxonadir. Ushbu fikrning eng yuksak badiiy isboti sifatida "Yovvoyi yo‘rg‘a" hikoyasini keltirishimiz mumkin.

Qadimiy mifik va kosmogonik qarashlarda ot totemi butun borliq bilan uyg‘unlashgan "epik birodar", yer va samoni bog‘lab turuvchi erkinlik elchisi sanaladi. "Yovvoyi yo‘rg‘a" asaridagi Qora yo‘rg‘a ham xuddi shunday bo‘ysunmas va mutlaq sof holatni o‘zida ifodalovchi jonli arxetipdir. G‘arb sivilizatsiyasi, umuman, pragmatik kapitalistik jamiyat vakillari uchun bu ilohiy tabiat mo‘jizasi shunchaki egar-jabduqqa olinishi, olovli tamg‘a bosilishi va iste‘mol buyumiga aylantirilishi kerak bo‘lgan jonsiz mulkdir. Inson tafakkuri shu qadar xudbinlashganki, tabiatdagi har qanday noyob go‘zallik albatta uning hukmiga tobe bo‘lishi shart deb hisoblanadi.

Oylab davom etgan hiyla va ta‘qiblardan so‘ng asirlikda qolgan, qochib qutulish ilinjidan mahrum bo‘lgan Qora yo‘rg‘a qizargan tamg‘a yaqinlashgan lahzada o‘zining so‘nggi, buyuk isyonini amalga oshiradi. U bor kuchi bilan sakrab tosh devordan oshib o‘tadi va o‘zini hech ikkilanmasdan tubsiz jarlikka otadi. Otning bu fojiali parvozi shunchaki qo‘rquv tufayli qilingan harakat emas, u butun sivilizatsiyaga qarshi ko‘tarilgan eng sof, qudratli ekzistensial isyondir. Qora yo‘rg‘a o‘limni fojia deb emas, balki qullikdan qutulishning yagona va oliy yo‘li deb bildi. U asirlik va xo‘rlik sharoitida yashashni mutlaqo rad etdi. Jarlikka qulash onida u odamzot bosa olmagan yakkayu yagona tamg‘ani — mutlaq Ozodlik va Mangu bo‘ysunmaslik tamg‘asini o‘z jismiga muhrlab ketdi. Inson o‘zining yovvoyi nafsini qondirish yo‘lida bir go‘zallikni tiriklayin jarlikka itardi. Yozuvchi matn qa‘riga yashiringan mudhish haqiqatni yuzaga chiqaradi: inson tabiatni ovlayapman deb o‘ylagan lahzada, aslida o‘z ruhiyatini, o‘zining insoniy ma‘naviyatini halokat jarligiga qulatib bormoqda.

Seton-Tompson ijodini o‘qish o‘z mohiyatiga ko‘ra tabiat va jamiyat evolyutsiyasini ekokritik nuqtai nazardan teran o‘rganishdir.

Bugungi globallashuv, ekologik inqirozlar va iqlim bo‘hronlari davrida adib asarlari o‘ziga xos ekologik manifest, bashariyatga qilingan qat‘iy ogohlantirish sifatida jaranglaydi. Asrlar davomida "sanoat inqilobi" deb nomlangan shiddatli jarayonlar ortida daryolar quritildi, yovvoyi o‘rmonlar payhon etildi, millionlab turdagi jonivorlar qirib tashlandi. Tabiatning teng huquqli vakillari qafaslarga, hayvonot bog‘lari va sirkning temir

panjaralari ortiga hukm qilindi. Tompson asarlaridagi har bir qahramon ayni shu kibr, ayni shu beshafqat egoizm uchun insoniyatdan qat’iy hisob so‘raydi.

E’tibor bersak, asarlarda inson hech qachon bunyodkor, himoyachi yoxud mehr-shafqat manbai sifatida ishtirok etmaydi. U doimo tabiatning yaxlitligini buzuvchi, o‘lim, azob va qon olib keluvchi antagonistik kuchdir. Hayvonot dunyosi biologik muvozanatni hech qachon buzmaydi, ular faqatgina yashab qolish va nasl qoldirish uchungina tabiat qonunlariga bo‘ysunadi. Inson esa shon-shuhrat, ermak va cheksiz moddiy xohishlari yo‘lida tabiatga ayovsiz ziyon yetkazadi.

Yozuvchi quruq axloqiy da’vatlar qilib o‘tirmaydi. U matnda faktni, xom va og‘riqli voqelikni yalang‘och holda taqdim etadi. Kitobxon ko‘kragiga qo‘rg‘oshin yegan ona tulkinining faryodini eshitadi, qopqonga tushgan panja og‘rig‘ini vujudi bilan his qiladi. Asarlar ortidagi ulkan falsafa shuki, atrof-muhitdagi yovvoyi mavjudotlarning miltillab turgan ko‘zlaridagi hayot ishtiyoqini, ularning faryodini his eta olmagan odamzot yakunda o‘z jinsdoshining dardini ham his etish qobiliyatidan mahrum bo‘ladi. Hayvonlarga bo‘lgan munosabat, aslini olganda, jamiyatning ma’naviy-axloqiy sog‘lomligini o‘lchab beruvchi eng o‘tkir barometrdir.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, Ernest Seton-Tompson merosi shunchaki tabiat manzaralari va hayvonlar hayotidan iborat xronika emas. Bu meros insoniyat o‘z-o‘ziga baho berishi, o‘z faoliyatining halokatli oqibatlarini ko‘rishi uchun tutilgan ulkan, haqqoniy va pafosdan xoli ko‘zgudir. Yozuvchi hikoyalari insonni chinakam gumanizmga, faqat o‘z turiga yoxud sivilizatsiya ne’matlariga emas, balki butun borliqqa nisbatan teran daxldorlik va hurmat hissi bilan yashashga o‘rgatadi.

Tabiat insonga aslo qaram emas; u ming yillar davomida inson ishtirokisiz ham o‘zining sof, muazzam tsikllarini davom ettirib kelgan. Ammo inson tabiatsiz aslo mavjud bo‘la olmaydi. Odamzotning kibri va ehtiyoji yovvoyi olamga necho‘g‘liq og‘ir jarohat yetkazmasin, tabiat ertami kechmi bu jarohatlarning ruhiy javobini beradi. "Lobo"ning buyuk sadoqati tufayli tanlagan g‘ururli o‘limi, Qora yo‘rg‘aning mutlaq erkinlik qanotida tubsiz ummonga sakrashi — bular bugungi yuksak texnologiyalar davrida yashayotgan odamzotning vijdoni uchun chalinayotgan eng og‘ir xavotir bonglaridir.

Kimsasiz tog‘ cho‘qqilari, tumanli daryolar yoxud qalin o‘rmonlar sukunatiga diqqat qilsangiz, borliq qa’ridan taralayotgan yovvoyi, bo‘ysunmas va sokin sadoni tuyishingiz muqarrar. Bu sado Kurrumpo vodiysida g‘urur bilan jon bergan Loboning, inson yaratgan zanjirlarni rad etib, o‘zini jarlik qa’riga otgan jasur mustangning mangu ruhidir. Bu tilsiz qahramonlar bugun Seton-Tompsonning o‘lmas sahifalaridan turib insoniyatni zo‘ravonlikni to‘xtatishga, tabiat oldida tavba qilishga va chinakam ma’naviy uyg‘onishga chorlamoqda.

Yovvoyi tabiatning bu mardona go‘zalligi va tilsiz faryodi sivilizatsiyani komillik va rahmshafqat sari yetaklovchi abadiy mayoq bo‘lib xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Seton-Tompson, E.** (1989). Yovvoyi yo‘rg‘a. Hikoyalar (Tog‘ay Murod tarjimasi). Toshkent: Yosh gvardiya.
2. **Seton-Thompson, E.** (1898). Wild Animals I Have Known. New York: Charles Scribner's Sons.
3. **Сетон-Томпсон, Э.** (1980). Рассказы о животных. Москва: Правда.
4. **London, J.** (2014). Yovvoyi ajdodlar nidosi. Oq so‘yloqtish. Toshkent: Yangi asr avlodi.
5. **Лондон, Дж.** (1984). Белый Клык. Зов предков. Москва: Художественная литература.
6. **Glotfelty, C., & Fromm, H.** (Eds.). (1996). The Ecocriticism Reader: Landmarks in Literary Ecology. Athens: University of Georgia Press.
7. **Buell, L.** (1995). The Environmental Imagination: Thoreau, Nature Writing, and the Formation of American Culture. Cambridge: Harvard University Press.
8. **Garrard, G.** (2004). Ecocriticism (The New Critical Idiom). London: Routledge.
9. **Quronov, D.** (2018). Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. Toshkent: Akademyashr.
10. **Normatov, U.** (2007). Ijod sehri. Toshkent: Sharq.
11. **Qo‘shjonov, M.** (2004). O‘zbekning o‘zligi. Toshkent: Ma‘naviyat.
12. **Rasulov, A.** (2007). Badiiylik – bezavol yangilik. Toshkent: Sharq.
13. **Yo‘ldoshev, Q.** (2006). Yoniq so‘z. Toshkent: Yangi asr avlodi.
14. **Xudoyberdiyev, E.** (2008). Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent: O‘zbekiston.
15. **Jo‘rayev, M.** (1999). O‘zbek xalq dostonlarida mifologik obrazlar. Toshkent: Fan.
16. **Бахтин, М.М.** (1979). Эстетика словесного творчества. Москва: Искусство.
17. **Мелетинский, Е.М.** (1976). Поэтика мифа. Москва: Наука.
18. **Топоров, В.Н.** (1995). Миф. Ритуал. Символ. Образ: Исследования в области мифопоэтического. Москва: Прогресс.
19. **Фрейд, З.** (1990). Психология бессознательного. Москва: Просвещение.
20. **Юнг, К.Г.** (1991). Архетип и символ. Москва: Ренессанс.
21. **Фромм, Э.** (2004). Анатомия человеческой деструктивности. Москва: АСТ. (Asardagi insonning tabiatga nisbatan shafqatsizligi va "zo‘ravonlik kompensatsiyasi" tahlili uchun).
22. **Karimov, N., va boshqalar.** (1999). XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: O‘qituvchi.